

O‘ZBEKISTONDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING AHOLI FAROVONLIGIGA TA’SIRI: DINAMIK KO‘RSATKICHLAR, AMALIY NATIJALAR VA INSTITUTSIONAL CHEKLOVLAR

Rustamov Shoxrux Xusanbayevich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich magistranti

Shohruhrustamov1999@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19808469>

Annotatsiya: Mazkur magistrlik tezisida O‘zbekistonda innovatsion rivojlanishning aholi farovonligiga ta’siri dinamik ko‘rsatkichlar, amaliy natijalar hamda institutsional cheklovlar kesimida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida innovatsion rivojlanish jarayonlarining aholi daromadlari, bandlik darajasi, mehnat unumdorligi va ijtimoiy xizmatlar sifati bilan o‘zaro bog‘liqligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, innovatsion siyosatni amalga oshirish samaradorligiga ta’sir etuvchi institutsional omillar va mavjud tizimli cheklovlar baholanadi. Tadqiqot yakunida aholi farovonligini oshirishda innovatsion rivojlanishning rolini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion rivojlanish, aholi farovonligi, dinamik ko‘rsatkichlar, amaliy natijalar, institutsional cheklovlar, bandlik, daromadlar, mehnat unumdorligi, innovatsion siyosat, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация. В данной магистерской диссертации комплексно анализируется влияние инновационного развития в Узбекистане на благосостояние населения в разрезе динамических показателей, практических результатов и институциональных ограничений. В рамках исследования на научной основе раскрывается взаимосвязь процессов инновационного развития с доходами населения, уровнем занятости, производительностью труда и качеством социальных услуг. Наряду с этим оцениваются институциональные факторы и существующие системные ограничения, оказывающие влияние на эффективность реализации инновационной политики. По итогам исследования разрабатываются научные выводы и практические предложения, направленные на усиление роли инновационного развития в повышении благосостояния населения.

Ключевые слова: инновационное развитие, благосостояние населения, динамические показатели, практические результаты, институциональные ограничения, занятость, доходы, производительность труда, инновационная политика, экономическое развитие.

Abstract. This master’s thesis provides a comprehensive analysis of the impact of innovative development in Uzbekistan on population welfare through the prism of dynamic indicators, practical outcomes, and institutional constraints. The study scientifically examines the relationship between innovation-driven development processes and such factors as household income, employment level, labor productivity, and the quality of social services. In addition, it assesses the institutional factors and existing systemic constraints affecting the effectiveness of innovation policy implementation. Based on the findings, the thesis formulates scientific conclusions and practical recommendations aimed at strengthening the role of innovative development in improving population welfare.

Keywords: innovative development, population welfare, dynamic indicators, practical outcomes, institutional constraints, employment, income, labor productivity, innovation policy, economic development.

Kirish

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion rivojlanish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, innovatsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash orqali aholi farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda innovatsion rivojlanish jarayonlarining aholi farovonligi bilan o'zaro bog'liqligini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tezisda O'zbekistonda innovatsion rivojlanishning aholi farovonligiga ta'siri dinamik ko'rsatkichlar, amaliy natijalar va institutsional cheklovlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi innovatsion rivojlanishning aholi turmush darajasiga ta'sir mexanizmlarini aniqlash, mavjud institutsional muammolarni baholash hamda ushbu yo'nalishda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari innovatsion siyosat samaradorligini oshirish, aholi farovonligini mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi

Mazkur tadqiqot mavzusini yoritishda innovatsion rivojlanish va aholi farovonligi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiruvchi xorijiy hamda mahalliy ilmiy manbalarga tayanildi. Innovatsiya nazariyasining klassik asoslari J. Shumpeter asarlarida¹ bayon etilib, unda innovatsiya iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinadi. Muallifning yondashuvida yangilik iqtisodiy tizimga yangi kombinatsiyalarni olib kirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Aholi farovonligi masalasi bo'yicha A. Sen² va A. Pigou³ qarashlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. A. Sen farovonlikni faqat daromad miqdori bilan emas, balki insonning real imkoniyatlari, ta'lim, sog'liq va munosib hayot kechirish salohiyati bilan bog'laydi. A. Pigou esa farovonlikni ijtimoiy ne'matlar taqsimoti va iqtisodiy siyosat natijalari bilan izohlaydi.

Mahalliy adabiyotlarda Vahobov A.V. tahriri ostida tayyorlangan "Ijtimoiy siyosat" o'quv qo'llanmasida aholi farovonligi, ijtimoiy himoya va davlatning ijtimoiy siyosati o'rtasidagi bog'liqlik keng yoritilgan. Abdurahmonov X.X., Arabov N.U. va Xolmuxamedov M.M.ning "Aholi daromadlari va turmush sifati" asarida esa daromadlar shakllanishi, turmush sifati ko'rsatkichlari va farovonlikni baholash mezonlari tahlil qilingan⁴. Bizning nazarimizda, ushbu mahalliy va xorijiy ilmiy yondashuvlarni birgalikda qo'llash O'zbekiston sharoitida innovatsion rivojlanishning aholi farovonligiga ta'sirini yanada aniqroq va tizimli baholash imkonini beradi.

Asosiy qism

¹ Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М.: ЭКМО, 2007. - С. 278.

² Sen Amartya. "Capability and Well-Being." In: The Quality of Life. Oxford: Clarendon Press, 1993. – P. 30–53.

³ Pigou A.C. The Economics of Welfare. - 4th ed. - London: Macmillan and Co., 1932. - Part I, Chapter I "Welfare and Economic Welfare", - P. 11.

⁴ Vaxobov A.V. (umumiy tahriri ostida). Ijtimoiy siyosat: o'quv qo'llanma. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2019. – B. 160.; Abdurahmonov X.X., Arabov N.U., Xolmuxamedov M.M. Aholi daromadlari va turmush sifati. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2014. – B. 174-175.

Bugungi kunda innovatsion rivojlanish masalasi faqat texnologik yangilanish yoki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan cheklanmaydi. U tobora ko‘proq aholi daromadlari, turmush sifati, bandlik, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish qulayligi va inson kapitalining rivojlanishi bilan bog‘liq kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston sharoitida ham bu yondashuv tobora mustahkamlanib bormoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasi hamda “O‘zbekiston-2030” strategiyasida innovatsiya iqtisodiy o‘shishning ichki manbai, raqamli transformatsiyaning drayveri va farovonlikni oshirish vositasi sifatida talqin etilgan⁵. Mazkur hujjatlar innovatsion siyosatni alohida tarmoq siyosati emas, balki iqtisodiy modernizatsiya, ta‘lim, ilm-fan, biznes muhiti va davlat xizmatlarini yangilash bilan bog‘liq tizimli yo‘nalish sifatida belgilaydi.

Nazariy jihatdan qaralganda, innovatsion rivojlanish tushunchasi iqtisodiy tizimning yangilik yaratish, uni amaliyotga joriy etish va undan ijtimoiy-iqtisodiy natija olish qobiliyatini anglatadi. Klassik iqtisodiy qarashlarda J.Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning “yangi kombinatsiyalar” mexanizmi sifatida izohlaydi. Bu yondashuvning mazmuni shundan iboratki, yangilikning qiymati u yaratilib qo‘yilganida emas, balki u ishlab chiqarish, xizmatlar, bozor va boshqaruv tizimiga kirib, real natija berganida namoyon bo‘ladi. Freeman, Lundvall va Nelson esa innovatsiyani alohida korxonalar muvaffaqiyati emas, balki milliy innovatsion tizim – ya‘ni davlat, ilm-fan, ta‘lim, tadbirkorlik va bozor institutlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar mahsuli sifatida ko‘rsatadi. Shu ma‘noda innovatsion rivojlanishning haqiqiy natijasi faqat patentlar yoki texnoparklar soni bilan emas, balki aholi kundalik hayotiga kirib borgan qulayliklar, bandlik imkoniyatlari va turmush sifati o‘zgarishi bilan o‘lchanadi.

Farovonlik kategoriyasi ham zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda tobora kengroq mazmunda talqin etilmoqda. U faqat pul daromadlari yoki iste‘mol hajmi bilan emas, balki insonning uzoq va sog‘lom umr ko‘rishi, sifatli ta‘lim olishi, munosib daromad topishi, xavfsiz muhitda yashashi va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Aynan shu sababli farovonlikni baholashda daromad ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda inson taraqqiyoti, tenglik, bandlik sifati va xizmatlar sifati kabi indikatorlar ham e‘tiborga olinadi. Bizning nazarimizda, O‘zbekiston sharoitida innovatsion rivojlanish va aholi farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘g‘ri anglash uchun “innovatsiya - mahsuldorlik – daromad - xizmat sifati - turmush sifati” zanjirini yagona tizim sifatida tahlil qilish zarur.

Mazkur masalaning ilmiy mohiyati shundaki, innovatsiya iqtisodiy o‘shishni kuchaytiradi, ammo uning farovonlikka aylanishi avtomatik jarayon emas. Innovatsion natija avvalo mehnat unumdorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, yangi ish o‘rinlari va xizmat turlarini shakllantiradi. Keyingi bosqichda ushbu jarayon aholining daromad bazasini kengaytirishi, xizmatlardan foydalanish vaqtini qisqartirishi, davlat va bozor institutlari o‘rtasidagi aloqalarni soddalashtirishi kerak. Agar bu o‘tish mexanizmi zaif bo‘lsa, innovatsiya mavjud bo‘lsa ham farovonlik natijasi keng qatlamlarga yetib bormaydi. Demak, innovatsion rivojlanishni baholashda texnologik yutuqlar bilan bir qatorda uning ijtimoiy samarasini o‘lchash ham zarur.

O‘zbekistonda 2022–2025-yillar kesimida innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari ijobiy siljishni ko‘rsatmoqda. Jahon intellektual mulk tashkilotining 2025-yilgi Global Innovation Index hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston 2020-yildagi 93-o‘rindan 2021-yilda 86-o‘rin, 2022-yilda

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.

82-o‘rin, 2023-yilda 82-o‘rin, 2024-yilda 83-o‘rin va 2025-yilda 79-o‘ringa ko‘tarildi⁶. Shu bilan mamlakat ilk bor top-80 talikka kirdi va bu uning eng yaxshi natijasi bo‘ldi. Hisobotda O‘zbekistonning ayniqsa mehnat unumdorligi o‘sishi, ilm-fan va muhandislik yo‘nalishlaridagi bitiruvchilar ulushi, biznes muhiti va ta‘limga sarflanayotgan xarajatlar bo‘yicha kuchli tomoni qayd etilgan. Bu holat innovatsiya endilikda faqat deklarativ siyosat emas, balki institutsional va inson kapitaliga tayanuvchi amaliy jarayonga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Farovonlikning kengroq mezoni sifatida inson taraqqiyoti ko‘rsatkichlariga murojaat qilinsa, 2025-yilgi BMTTDning Inson taraqqiyoti hisobotida O‘zbekistonning HDI ko‘rsatkichi 0,740, o‘rni esa 107 etib qayd etilgan. Jadvalda mamlakat bo‘yicha tug‘ilishdagi umr davomiyligi 72,4 yil, kutilayotgan ta‘lim davomiyligi 12,5 yil, o‘rtacha ta‘lim yillari 11,9 yil deb ko‘rsatilgan⁷. Bu raqamlar shuni anglatadiki, iqtisodiy islohotlar va innovatsion yangilanishlar faqat makroko‘rsatkichlarda emas, inson kapitali indikatorlarida ham aks etmoqda. Biroq HDI o‘sishi hali yuqori darajadagi farovonlikka to‘liq erishilganini anglatmaydi; aksincha, u iqtisodiy o‘shishning inson rivojiga uzatilish jarayoni davom etayotganini ko‘rsatadi.

Makroiqtisodiy dinamikada ham shu tendensiya kuzatiladi. Markaziy bankning 2024-yil bo‘yicha yillik hisobotida mamlakat YAImi 2024-yilda 6,5 foizga o‘sgani qayd etilgan. Xalqaro valyuta jamg‘armasining 2026-yil aprelida e‘lon qilingan missiya bayonotida esa O‘zbekiston iqtisodiyoti 2025-yilda 7,7 foizga o‘sgani, bu o‘shish xizmatlar, qurilish, iste‘mol va investitsiyalar hisobiga keng bazada shakllangani ta‘kidlangan⁸. Demak, innovatsion va institutsional islohotlar iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlovchi ichki muhit yaratgan. Shu bilan birga, yuqori o‘shish sur‘ati bilan bir qatorda uning tarkibi, sifat ko‘rsatkichlari va farovonlikka uzatilish mexanizmlarini baholash ham muhimdir.


Aholi daromadlari dinamikasi farovonlikni baholashda muhim manba hisoblanadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotiga ko‘ra, 2025-yil yanvar–dekabr oylarida aholi umumiy daromadlari 1 134,3 trln so‘mni tashkil etgan va real o‘shish 9,2 foiz bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich innovatsion va iqtisodiy faoliyatning real daromad bazasiga o‘ta boshlaganini ko‘rsatadi. Biroq daromadlarning tarkibiy manbalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, aholi daromadlarida mehnat faoliyatidan olinadigan tushumlar, transferlar hamda kichik tadbirkorlikdan keladigan daromadlar muhim ulushga ega bo‘lib qolmoqda. Demak, innovatsion rivojlanishning farovonlikka ta‘siri bevosita yuqori texnologiyalar orqali emas, ko‘proq xizmatlar, kichik biznes, raqamli savdo va yangi bandlik shakllari orqali namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17,0 foizdan 2022-yilda 14,1 foizga, 2023-yilda 11,0 foizga, 2024-yilda 8,9 foizga va 2025-yilda 5,8 foizga tushgani ko‘rsatilgan. Bunday pasayish davlatning ijtimoiy siyosati, manzilli yordam, mehnat bozori faollashuvi va daromadlar o‘sishi bilan bog‘liq.

⁶ WIPO, Global Innovation Index 2025: Uzbekistan ranking.

⁷ UNDP, Human Development Report 2025, Statistical Annex.

⁸ IMF, Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the [2026 Article IV Mission](#).




1-rasm. O'zbekistonda kambag'allik darajasining dinamik pasayishi⁹

Demak, kambag'allik pasaygan bo'lsa ham, bu farovonlik masalasi to'liq hal bo'ldi degani emas. Chunki kambag'allikning qisqarishi bilan birga daromadlar sifati, ijtimoiy mobilitet, bandlikning barqarorligi va hududiy tengsizlik masalalari saqlanib qolmoqda.

Bandlik bozorida o'zgarishlar ham bu jarayonni tasdiqlaydi. IMF ma'lumotiga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonda ishsizlik darajasi 4,8 foizgacha pasaygan, bu 2024-yilga nisbatan 0,7 foiz bandga pastdir. Rasmiy statistika tizimida ham ishsizlik bo'yicha yillik kuzatuvlar yangilanib bormoqda. Bu natija iqtisodiy faollikning kengaygani va xizmatlar hamda yangi faoliyat turlarida bandlik imkoniyatlari oshganidan dalolat beradi. Shunga qaramay, bandlikning sifati masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Ya'ni ish o'rinlari sonining ortishi bilan birga ularning mahsuldorligi, rasmiyligi, ijtimoiy himoyalanganligi va daromad darajasi ham baholanishi kerak. Innovatsion rivojlanishning farovonlikka haqiqiy ta'siri aynan bandlik sifati orqali aniqlanadi.

Farovonlikka ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri inflyatsiyadir. Markaziy bankning rasmiy ko'rsatkichlariga ko'ra, 2024-yil dekabrda yillik inflyatsiya 9,8 foiz bo'lgan bo'lsa, 2025-yil mart oyida u 10,3 foizgacha ko'tarilgan, aprel oyida 10,1 foizni tashkil etgan. Bu holat shuni ko'rsatadiki, nominal daromadlarning ortishi har doim ham xarid qobiliyatining shunga mos kuchayishini anglatmaydi.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Kambag'allik darajasi bo'yicha rasmiy hisobit 2021–2025. Muallif tomonidan tuzildi.



2-rasm. Inflyatsiya sur'atlarining o'zgarishi (2025-yil oylar kesimida)¹⁰

Demak, innovatsion rivojlanish natijalarini farovonlikka aylantirish uchun makrobarqarorlik, ayniqsa narxlar barqarorligi ham zarur. Aks holda innovatsiya hisobiga shakllangan daromad o'sishining bir qismi inflyatsion bosim ostida yemiriladi.

Aholi farovonligiga innovatsiyaning amaliy ta'siri ayniqsa loyiha va platforma darajasida aniqroq ko'rinadi. O'zbekistonda raqamli hukumat tizimi kengayib, gov.uz ma'lumotiga ko'ra, YaIDXP orqali 347 turdagi xizmatni onlayn shaklda ko'rsatish yo'lga qo'yilgan, hisobot davrida 47 ta yangi xizmat joriy etilgan va yil yakunigacha ularni 370 taga yetkazish rejalashtirilgan. Bunday xizmatlar sonining ko'payishi oddiy ma'muriy o'zgarish emas. U aholining vaqt xarajatini kamaytiradi, hujjat topshirish va navbat kutish xarajatlarini qisqartiradi, korrupsion xavflarni pasaytiradi va davlat bilan fuqaro o'rtasidagi tranzaksiya xarajatlarini minimallashtiradi. Bizning nazarimizda, aynan shunday ko'rinmas iqtisodiy tejamkorlik farovonlikning eng muhim, ammo ko'p hollarda statistikada yetarli baholanmaydigan tarkibiy qismidir.

Innovatsiyaning bandlik va daromadga ta'siri IT Park faoliyati misolida yanada ravshan ko'rinadi. IT Park ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar–may oylarida parkka 636 ta yangi kompaniya a'zo bo'lgan, shundan 267 tasi hududlarda faoliyat yuritgan. Yana bir rasmiy xabarda 2025-yil kuzida 267 ta eksportga yo'naltirilgan kompaniya IT Park ekotizimiga qo'shilgani qayd etilgan. Bu ko'rsatkichlar innovatsion muhit poytaxt bilan cheklanmay, bosqichma-bosqich hududlarga ham tarqalayotganini ko'rsatadi. Demak, innovatsion loyihalar farovonlikka ikki kanal orqali ta'sir qilmoqda: birinchidan, yuqori qo'shilgan qiymatli ish o'rinlarini yaratish; ikkinchidan, hududlarda yangi xizmatlar, raqamli kompetensiyalar va eksport faoliyatini rag'batlantirish orqali daromad bazasini kengaytirish.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Yillik, yil boshidan va oylik inflyatsiya ko'rsatkichlari. 2024-yil dekabr va 2025-yil mart–aprel inflyatsiya ma'lumotlari asosida Muallif tomonidan tuzildi.

Biroq ushbu ijobiy natijalarga qaramay, innovatsion rivojlanishning farovonlikka ta'sirini cheklayotgan bir qator institutsional omillar mavjud. Jahon Bankining O'zbekiston bo'yicha Country Economic Memorandum hisobotida 2020-yilda 2 000 dan ortiq markaziy davlat korxonalari mavjud bo'lgani va ularning to'rt dan besh qismi xususiy sektor samaraliroq ishlashi mumkin bo'lgan tarmoqlarda faoliyat yuritgani ta'kidlangan¹¹. Davlat korxonalari daromadlari YAIMning 32 foiziga teng bo'lgani ham qayd etilgan. Bu ko'rsatkichlar resurslar taqsimoti, raqobat muhiti va mahsuldorlik masalalari hanuz dolzarb ekanini ko'rsatadi. Ya'ni texnologik innovatsiya bo'lishi mumkin, ammo agar bozor instituti yetarlicha raqobatbardosh bo'lmasa, innovatsiyaning ijtimoiy samarasini keng qatlamlarga uzatish qiyinlashadi.

Bundan kelib chiqadiki, innovatsion rivojlanishni baholashda faqat texnologik ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolish ilmiy jihatdan yetarli emas; uning daromad, bandlik, xizmat sifati, hududiy inklyuziya va inson kapitaliga o'tish mexanizmlari ham birgalikda baholanishi lozim. Bizning nazarimizda, O'zbekiston uchun eng maqbul model innovatsion siyosatni raqamli hukumat, ijtimoiy himoya, IT eksporti, mahalliy tadbirkorlik va hududiy rivojlanish bilan integratsiyalashgan holda olib borishdir. Mazkur yondashuvni O'zbekiston sharoitida qo'llash innovatsiyani statistik yutuqdan real farovonlik omiliga aylantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishning sifatini oshirib, ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiradi va uzoq muddatda inson kapitalining raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Xulosa

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda innovatsion rivojlanish so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish, raqamli xizmatlar ko'laminin kengayishi, bandlik imkoniyatlarining ortishi va aholi daromadlarining oshishi orqali farovonlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, innovatsion siyosatning institutsional asoslari mustahkamlanib, raqamli transformatsiya va yangi iqtisodiy faoliyat turlari aholi turmush sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, innovatsion rivojlanish natijalarining barcha hududlar va ijtimoiy qatlamlarga bir xil darajada yetib bormayotganligi, inflyatsion bosim, hududiy tafovutlar va bandlik sifati bilan bog'liq muammolar mavjudligini ham ko'rsatadi. Bundan kelib chiqadiki, innovatsion siyosat samaradorligini oshirishda nafaqat texnologik yangiliklarni joriy etish, balki ularni aholi farovonligiga bevosita xizmat qiladigan mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning nazarimizda, O'zbekiston sharoitida innovatsion rivojlanishni ijtimoiy yo'naltirilgan, hududiy muvozanatni ta'minlaydigan va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan yondashuv asosida davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli “2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risidagi farmoni.

¹¹ World Bank, Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration.

3. Vahabov A.V. (umumiy tahriri ostida). Ijtimoiy siyosat: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2019. – B. 160.; Abdurahmanov X.X., Arabov N.U., Xolmuxamedov M.M. Aholi daromadlari va turmush sifati. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2014. – B. 174-175.
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М.: ЭКМО, 2007. - С. 278.
5. Sen Amartya. “Capability and Well-Being.” In: The Quality of Life. Oxford: Clarendon Press, 1993. – P. 30–53.
6. Pigou A.C. The Economics of Welfare. - 4th ed. - London: Macmillan and Co., 1932. - Part I, Chapter I “Welfare and Economic Welfare”, - P. 11.
7. WIPO, Global Innovation Index 2025: Uzbekistan ranking.
8. UNDP, Human Development Report 2025, Statistical Annex.
9. IMF, Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2026 Article IV Mission.
10. World Bank, Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration.